

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIGA TABIATNI TANISHTIRISHDA MUTAFAKKIRLAR MEROSI VA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI.

Alimardonova Mo'tabar Xolmo'minovna

Shahrisabz davlat pedagogika instituti "Tabiiy fanlar" kafedrasi o'qituvchisi.

Qudratova Xosiyatxon Begmurod qizi

*Shahrisabz davlat pedagogika instituti "Boshlang'ich ta'lim" yo'nalishi
3- bosqich talabasi.*

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilariga eng avvallo tabiatni tanitish, shu bilan birga ajdodlar me'rosini o'rganish, bundan tashqari yana darslarni qiziqarli usullarda tashkil etish xususida fikr yuritiladi.

KALIT SO'Z: Tabiiy fan, Zamonaviy texnologiyalar, uslub va qo'llanmalar, boshlang'ich ta'lim, O'qitish metodikalari.

THE IMPORTANCE OF USING THE HERITAGE OF THINKERS AND MODERN TECHNOLOGIES IN INTRODUCING NATURE TO ELEMENTARY STUDENTS.

Annotation: This article discusses the importance of introducing primary school students to nature, while also studying the heritage of their ancestors, and organizing lessons in interesting ways.

KEY WORDS: Natural science, Modern technologies, methods and applications, primary education, Teaching methodologies.

KIRISH.

Dars jarayonlarini sifatli hamda samarali tashkil etish uchun eng avvallo qanday usul va qo'llanmalarni amalda qo'llash kerak? degan savolni o'rta tashlashimiz lozim ayniqsa biz bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari. Boshlang'ich ta'lim jarayonlarini qiziqarli samarali tashkil etish bu hozirgi zamon talabidir, aynan shu orqali o'quvchilardagi kreativlikni, ijodkorlikni, va teran fikrlash qobiliyatlarini shakllantirishimiz mumkin. Hozirgi kundagi o'zgarishlarga misol qilib eng avvallo yangi darsliklarni olishimiz mumkin ushbu darsliklardagi mavzular faqatgina ma'ruza mashg'uloti bilan cheklanibgina qolmay amaliy mashg'ulotlar bilan tashkil etilgan. Aynan shu orqali o'quvchilar ham eshitib ham ko'rib bilimlarini yanada mustahkamlaydilar va bu malakalarni hayotga tadbiq etib borishadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR TAHLILI.

Tadqiqot jarayonida ko'plab ilmiy-uslub qo'llanmalar boshlang'ich sinf darsliklari va boshqa adabiyotlardan foydalanildi.

MUHOKAMA VA NATIJA.

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga tabiatni tanishtirishda eng yaxshi va samarali usullardan biri ko'rgazmalilik mrtodi hamda AKT vositalaridan foydalanib darslarni tashkil etishdir. Bu orqali o'quvchilar tabiatni barcha sirlarini o'rganishlari borliqni tasavvur qilishlari tabiatdagi barcha elementlarni, detallarni o'rganishlari umkin bo'ladi. O'qituvchi dars jarayonlarini tashkil etishda albatta ajdodlar me'rosini misol keltirib ularning bizga qoldirgan ma'lumotlarini aytib o'tishlari lozimdir. Bunga misol qilib quyidagi olimlarimizni keltirishimiz mumkin ularning qilgan ishlari tabiiy fan uchun eng katta asoslardan biri bo'lgan desak mubolag'a bo'lmaydi.

Tabiiy fanlarning taraqqiyot tarixi haqida fikr yuritadigan bo'lsak, uning asosini qadimiy Gresiyada amaliyot maktabi asoschisi, o'z davri va mamlakatining siyosiy arbobi **Fales** yaratgan. Fales dunyoni bilish maqsadida uzoq vaqt sayohat qilgan. Yegipetda geometriya va kosmologiya sohasida olgan bilimlari asosida quyosh tutilishini oldindan (karomat) aytgan. Aristotel fikriga ko'ra, Fales tabiatda sodir bo'ladigan voqeylik, tabiiy muhitni o'zgarishi va koinotda sodir bo'ladigan hodisalar, xususan quyosh tutilishini oldindan bashorat qilgan, u yetti donishmand (ulamao)lardan birinchisi, dono va oqil siyosatchi bo'lgan. Aristotel uning og'zaki holda qoldirgan to'rt tezisini keltiradi:

1. Hamma narsa suvdan paydo bo'lgan.
2. Yer suvda daraxt (yog'och) singari suzib yuradi.
3. oinot iloh (xudo) arga to'la. Jon-koinotda joylashgan.
4. ag-«jon» bor, chunki u temirni harakatga keltiradi.

Falesning arxaik ontologiyasida borliq (mavjudiyat) va hayot o'xshash, bir-biridan farqlanmaydi. Koinotda mavjud barcha narsa hayot, yashaydi. Hayot nafas olish va oziqlanishdan iborat. Birinchi funksiyani iloh (xudo), ikkinchisini suv bajaradi.

Melodiydan oldingi 490-430 yillarda qadimiy yunonistonda yashab ijod etgan **Empedokl** o'z davrining buyuk tabiatshunos olimlaridan hisoblangan. Empedokl nafaqat o'zining falsafiy qarashlari bilan, balki mohir tabib, bilimdon fizik va fiziolog sifatida shuhrat qozongan. U quyosh tutilishini tushuntirib berishga muvaffaq bo'lganlardan. Empedokl quyosh tutilishini oy, yer bilan quyosh o'rtasidan o'tgaligi tufayli sodir bo'lishini tushuntirgan. SHunga ko'ra, quyosh nuri (yorug'lik) shu qadar tez o'tadiki, kishi uning harakatini payqamaydi va tarqalish uzunligini aniqlay olmaydi.

Empedoklning «Tabiat haqida» va «Tozalanish» deb nomlangan ikkita yuksak san'at asari-poemasi (she'rlarining o'ndan bir bo'lagi bizga qadar yetib kelgan) mavjud. Empedokl falsafasiga ko'ra borliq asosan to'rt narsa: olov, havo, suv va yer

elementlari statusiga ega. Empedokl bularni barchasi tabiatda mavjud narsalarning ildizi yoki organik moddalarning sifat va miqdor jihatidan o'zgarmas, ma'lum proporsiyada hosil bo'ladigan tabiat substansiyasi deb qaragan.

Empedokl tabiat hodisalarini bir xildan ikkinchi xilga o'tishi, ya'ni bordan yo'q, yo'qdan bor bo'lishini inkor etuvchi tezisini qabul qilgan. Uningcha «tug'ilish» va «o'lish»ning o'zi yo'q. Bular so'zlarni noto'g'ri ifodasi hisoblanadi. Aslida uningcha elementlarning mexanik jihatdan «birikishi» va «ajralish»dan iborat. Chunki elementlarni ifoda etish uchun morfologik kod qo'llaniladi.

Masalan, Zevs (olov), Aydoney (havo), Nestida (suv), Gera (er). Bularning o'zaro intilishi (tortishuvi) yoki itarilishi «sevgi» va «nafrat» sifatida namoyon bo'ladi.

Tabiiy fan rivojiga hissa qo'shgan buyuk bobokalonlarimiz bir qancha Movaraunnahr olimlarini ham ta'kidlashimiz lozim. Abu ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr al- Farobiy, Abul Abbos al-Farg'oniylar ushbu olimlarimiz tabiiy fanga juda ko'p hissalarini qo'shishgan.

XULOSA

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki boshlang'ich sinf o'quvchilariga dars jarayonlarini qiziqarli uslubda o'tish bu eng katta talablardan biri desak mubolag'a bo'lmaydi. O'quvchilar qiziqqon darslarda juda faol bo'lishadi. Shu sababli ularni to'g'ri yo'naltira olishimiz lozim. Darslarni turxi xil metodikalar va axborot-texnologiyalaridan foydalanib o'tish dars samaradorligini yanada oshiradi. O'qituvchi dars jarayonini faqatgina ma'ruza mashg'uloti orqali olib borsa o'quvchida zerikish, tez charchab qolish, darsga e'tiborsiz o'tirish holatlari kuchayadi va shu orqali o'quvchidagi bilim holati passiv darajaga tushadi. Bu esa kelajak avlod egalari uchun yomon holatdir. Yosh avlodlarimiz sifatli, hamda mustahkam bilim olishlari bu biz uchun muhimdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Boshlang'ich sinf "Tabiiy fanlar" darsligi;
2. Abdullayeva M., Bahriyeva G. "Boshlang'ich ta'lim tabiiy fanlarni o'qitishda sinfdan tashqari ishlar";
3. Kayumova K. "Boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlarni o'qitish";
4. Xalikova G., Saydova Sh. "Boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlarning o'qitilishi";
5. Nuriddinova M. "Tabiatshunoslik o'qitish metodikasi", Toshkent – "O'qituvchi" nashriyoti.